


**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024-YIL YANVAR-FEVRAL
(DASTLABKI MA‘LUMOT)**






Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 3255,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 110,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 2559,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 78,6 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining—43,4 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining—7,1 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning—28,8 % ga o'sishi kuzatildi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish—24,0 % ga kamayish kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash–tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,4 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,1 % ga toʻgʻri keldi.




*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*




yanva-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)


Ohaktosh



Tabiiy gaz



Gaz kondensati



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-fevral	2024-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Ohaktosh, t.	28589,6	29344,8	755,2
Gaz kondensati, ming t.	10,7	9,4	-1,3
Tabiiy gaz, mln. kub.m	176,4	153,8	- 22,6

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat


Ishlab chiqaradigan sanoat bu–tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2559,9 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 78,6 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi


yanvar-fevral FHI, % da



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04 % ni (2023-yilning yanvar-fevral oylarida—0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali—52,4 % (55,4 %), o'rta-quyi texnologiyali — 3,9 % (2,0 %), quyi texnologiyali—43,7 % (42,5 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi—52,9% (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi—22,4% (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,6%), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi—19,3% (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,6%) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi–3,0% (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,4%), mebel ishlab chiqarishning ulushi–1,0% (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 144,6%) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 106,9 ming tonna portlandsement (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 5,8 marta ko'paygan, 258,0 tonna makaron mahsulotlari (75,5% ga ko'paygan), 283,0 tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (73,6% ga ko'paygan), 12,6 ming tonna paxta chigiti (16,9% ga ko'paygan), 7,9 ming tonna paxta tolasi (9,9% ga ko'paygan), 676,4 ming litr aroq (7,7% ga ko'paygan), 1,2 ming tonna o'simlik yog'i (28,6 % ga kamaygan), 2,4 ming tonna kalava ip (0,3% ga kamaygan) hamda 6,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (50,7% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-fevral	2024-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	628,3	676,4	48,1
O'simlik yog'i, (tozalangan), t.	1662,0	1186,1	-475,9
Portlandsement, t.	18564,2	106870,0	88305,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	13854,0	6836,1	-7017,9
Paxta tolasi, t.	7154,9	7862,0	713,1

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kimyo sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 52,4% bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,6% ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 1340,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0% ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 19,4 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 75,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish–yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 16,8 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 117,4 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 430,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish–spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 64,2 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 21,0 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,5 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 536,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4% bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,1% ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 36,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish–rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 172,4 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 13,7 mlrd. so‘m kuzatildi.



Mebel ishlab chiqarish

Mebel ishlab chiqarish–korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.




2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,0 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 144,6 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 25,4 mlrd. so‘m ekani kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar–kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 646,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 19,9 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 110,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 90,4% ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-fevral	2024-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	947,9	1051,0	103,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	18,0	16,3	-1,7
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	35837,9	43436,6	7598,7

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish—qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,4 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % iga) to'g'ri keldi.

*yanvar-fevral
mlrd. so'mda*



*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*

*yanvar-fevral
FHI, % da*




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 0,2 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 28,4 % ga hamda xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 17,2 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-fevral	2024-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1095,5	1406,7	311,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln.so'm	9981,9	9997,9	16,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	1703,3	1995,7	292,4

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra